



**SIRDARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

# **SIRDARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI**



**2023- YIL YANVAR-MART**


# SIRDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- aprel holatiga Sirdaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1204 tani tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida jami 12 ta yangi qurilish korxonasi tashkil etilib, ularning faoliyat ko'rsatayotgan korxonalariga nisbati 1,0 % ni tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 423 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 35,1 % i Guliston shahrida joylashgan.

## 2023- yil 1- aprel holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda




Shuningdek Mirzaobod tumanida 134 ta (viloyat bo'yicha jami qurilish korxonalarining 11,1 %) va Sirdaryo tumanida 105 ta (8,7 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

### Hududlar kesimida

|              |     |
|--------------|-----|
| Guliston sh. | 423 |
| Mirzaobod    | 134 |
| Sirdaryo     | 105 |
| Yangiyer sh. | 97  |
| Guliston     | 83  |
| Oqoltin      | 77  |
| Sayxunobod   | 77  |
| Boyovut      | 70  |
| Xovos        | 66  |
| Shirin sh.   | 40  |
| Sardoba      | 32  |


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha



# Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

2023- yilning yanvar-mart oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 634,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 100,3 % ni tashkil etdi.

## Qurilish ishlari hajmi, mlrd. soʻmda




## Yillar kesimida oldingi yilning mos davriga nisbati



*Ma'lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o'z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.*

# 2023- yil yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatida qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2022-yilning mos davriga nisbati, mlrd. so'm va foizda



Guliston shahri  
**215,9** mlrd. so'm



Sirdaryo tumani  
**137,6** mlrd. so'm



Mirzaobod tumani  
**100,3** mlrd. so'm

2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida xususan, Guliston shahri (215,9 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (137,6 mlrd. so'm) va Mirzaobod tumanida (100,3 mlrd. so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

# 2023- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023- yilning yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:


- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 71,8 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 22,5 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 95,5 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,7 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 88,7 % ni tashkil etdi.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, jamiga nisbatan % da




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm


455,2



143,0



36,0



**Bino va inshootlar qurish**



**Fuqarolik obyektlarini qurish**



**Ixtisoslashtirilgan qilish ishlari**

**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

# 2023- yil yanvar-mart oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 71,8 % yoki 455,2 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtmoyiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



**115,0**  
mlrd. so‘m  
**27,9 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 115,0 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 27,9 % ni tashkil etdi.


**253,1**  
mlrd. so‘m  
**61,4 %**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 253,1 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 61,4 % ni tashkil etdi.





**44,0**  
mlrd. so‘m  
**10,7 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 44,0 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 10,7 % ni tashkil etdi.

Yangi qurilishning ulushi



Yillar kesimida hajmi, mlrd. so‘mda



# 2023- yil yanvar-mart oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

|                                  | Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish | Ulushi jamiga nisbatan % da |
|----------------------------------|---|-----------------------------|
| <b>Sirdaryo viloyat bo'yicha</b> | <b>412,1</b>  | <b>100,0</b>                |
| <b>Guliston sh.</b>              | <b>122,5</b>  | <b>29,7</b>                 |
| <b>Shirin sh.</b>                | <b>9,9</b>  | <b>2,4</b>                  |
| <b>Yangiyer sh.</b>              | <b>24,1</b>   | <b>5,8</b>                  |
| <b>Boyovut</b>                   | <b>12,2</b>   | <b>3,0</b>                  |
| <b>Guliston</b>                  | <b>24,8</b>   | <b>6,0</b>                  |
| <b>Mirzaobod</b>                 | <b>65,1</b>   | <b>15,8</b>                 |
| <b>Oqoltin</b>                   | <b>9,3</b>  | <b>2,3</b>                  |
| <b>Sardoba</b>                   | <b>5,6</b>  | <b>1,4</b>                  |
| <b>Sayxunobod</b>                | <b>7,1</b>  | <b>1,7</b>                  |
| <b>Sirdaryo</b>                  | <b>109,6</b>  | <b>26,6</b>                 |
| <b>Xovos</b>                     | <b>21,9</b>   | <b>5,3</b>                  |

*\*hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda*




2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Guliston shahri (122,5 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (109,6 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (65,1 mlrd. so'm) qayd etildi.

# 2023- yil yanvar-mart oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurilishi – 455,2 mlrd. so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

## Bino va inshootlarni qurish ishlarining 2022-yilning mos davriga nisbati

2,6 m.

Yirik qurilish tashkilotlari

85,2 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

126,7 %

Norasmiy sektor



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 19,5 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 11,9 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 14,2 % punktga kamayib, 85,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,3 % punktga ko'payib, 126,7 % ni tashkil etdi.



# 2023- yil yanvar-mart oylarida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi va ulushi, mlrd. soʻm va foizda



Yangiyer shahri **84,3 %**



Xovos tumani **76,8 %**



Sirdaryo tumani **73,5 %**

**Ma'lumot uchun:** Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Yangiyer shahri (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 84,3 % i), Xovos tumani (76,8 %) va Sirdaryo tumani (73,5 %)da kuzatildi.

# 2023- yil yanvar-mart oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish, *mlrd. so'm*  
**116,6**

**26,3**



**Yirik qurilish tashkilotlari**



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

### Jami hajmdagi ulushi



**18,4 %**

**Yirik qurilish tashkilotlari**

Hajm – **26,3** mlrd. so'm  
2022-yilning mos davriga nisbatan – **143,5 %**



**81,6 %**


**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

Hajm – **116,6** mlrd. so'm  
2022-yilning mos davriga nisbatan – **88,5 %**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 18,4 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,2 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 88,5 % (6,1 % punktga ko'paydi).

# 2023- yil yanvar-mart oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi va ulushi, *mlrd. so'm va foizda*



**26,7 %**  
Guliston shahri



**23,3 %**  
Oqoltin tumani



**22,4 %**  
Sirdaryo tumani

**Ma'lumot uchun:** Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Guliston shahri (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 26,7 %), Oqoltin tumani (23,3 %) va Sirdaryo tumani (22,4 %)da kuzatildi.

# 2023- yil yanvar-mart oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo'yicha*

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, *mlrd. so'm*

35,9



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, 2022- yilning mos davriga nisbatan


**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

88,4 %


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,7 % punktga kamaydi va 5,7 % ni tashkil etdi.

# 2023- yil yanvar-mart oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va ulushi, *mlrd. soʻm va foizda*



**11,7 %**  
Sayxunobod tumani



**11,6 %**  
Oqoltin tumani



**11,2 %**  
Sardoba tumani

**Ma'lumot uchun:** Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Sayxunobod tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 11,7 % i), Oqoltin tumani (11,6 %) va Sardoba tumani (11,2 %) kuzatildi.

# 2023- yil yanvar-mart oylari uchun korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

**Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda**

**115,0**

**464,1**

**55,1**



**Yirik qurilish tashkilotlari**




**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**




**Norasmiy sektor**


**Jami hajmga nisbatan ulushi**



**Yirik qurilish tashkilotlari**  
2022-yilning mos davriga nisbatan – **2,2 m.**



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**  
2022-yilning mos davriga nisbatan – **86,2 %**



**Norasmiy sektor**  
2022-yilning mos davriga nisbatan – **129,9 %**

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yil yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-mart oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 115,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,1 m. ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 8,1 % ga oshib, 18,1 % ni tashkil etdi.

**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

## Yirik qurilish tashkilotlari, ulushi

8,1 %

18,1 %

2022- yil


2023- yil

Hajmi va oldingi yilning mos davriga nisbati, yillar bo'yicha

|                                 |                                  |                                   |                                  |                                   |
|---------------------------------|----------------------------------|-----------------------------------|----------------------------------|-----------------------------------|
| <b>8,3</b><br><i>mlrd. so'm</i> | <b>12,6</b><br><i>mlrd. so'm</i> | <b>105,7</b><br><i>mlrd. so'm</i> | <b>43,1</b><br><i>mlrd. so'm</i> | <b>115,0</b><br><i>mlrd. so'm</i> |
| <b>140,9 %</b>                  | <b>126,2 %</b>                   | <b>8,1 m.</b>                     | <b>36,3 %</b>                    | <b>222,7 %</b>                    |



2019




2020



2021



2022



2023

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yil yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 73,2 % to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 11,8 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 86,2 % ni tashkil etgan holda 464,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi

80,9 %



2019

86,1 %



2020

71,3 %



2021

85,0 %



2022

73,2 %



2023

## Yillar bo'yicha hajmi va oldingi yilning mos davriga nisbati

195,1

mlrd. so'm

100,7 %

2019

407,3

mlrd. so'm

108,0 %

2020

376,6

mlrd. so'm

89,6 %

2021

449,3

mlrd. so'm

97,5 %

2022

464,1

mlrd. so'm


73,2 %

2023



# 2023- yil yanvar –mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

Hududlarning hajmi va 2022-yilning mos davriga nisbati, mlrd. so‘m va foizda



**198,7 mlrd. so‘m**  
Guliston shahar



**73,4 mlrd. so‘m**  
Mirzaobod tumani



**35,8 mlrd. so‘m**  
Guliston tumani

*Ma‘lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahrida (198,7 mlrd. so‘m), Mirzaobod tumanida (73,4 mlrd. so‘m) va Guliston tumanida (35,8 mlrd. so‘m) qayd etildi.

# 2023- yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 8,7 % ni yoki 55,1 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 129,9 % ni tashkil etdi. Shundan 40,7 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 151,1 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 3,3 mlrd. soʻmni va 72,7 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 11,1 mlrd. soʻmni va 100,7 % ni tashkil etdi.

## Norasmiy sektor, ulushi foizda

6,9 %

2022- yil

8,7 %

2023- yil

## Yillar boʻyicha hajmi va oldingi yilning mos davriga nisbati

37,7  
mlrd. soʻm

32,1  
mlrd. soʻm

45,6  
mlrd. soʻm

36,3  
mlrd. soʻm

55,1  
mlrd. soʻm


127,6 %

68,7 %

128,8 %

73,5 %


129,9 %



2019



2020



2021



2022



2023

# 2023- yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Hududlarning hajmi va 2022-yilning mos davriga nisbati, mlrd. so‘m va foizda

Guliston sh.



Shirin sh.



Yangiyer sh.



Boyovut



Guliston



Mirzaobod



Oqoltin



Sardoba



Sayxunobod



Sirdaryo



Xovos



**19,0** mlrd. so‘m  
Sirdaryo tumani



**11,1** mlrd. so‘m  
Guliston shahri



**6,9** mlrd. so‘m  
Xovos tumani


*Ma‘lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Sirdaryo tumanida (19,0 mlrd. so‘m), Guliston shahrida (11,1 mlrd. so‘m) va Xovos tumanida (6,9 mlrd. so‘m ) qayd etildi.

# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 27,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 606,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 4,3 % va 95,7 % ni tashkil etdi.



## yanvar-mart oylaridagi hajm, mlrd. so'mda



**Ma'lumot uchun:** nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Sirdaryo tumanida (ushbu tumandagi qurilish ishlari umumiy hajmining 98,0 %), Guliston tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 97,2 %) va Yangiyer viloyatida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 97,7 % i) qayd etildi.



# Qurilish ishlari

## USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki havf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlariga** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.